



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 269 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA SOF FOYDANI TAQSIMLASH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN SOLIQ SOLISH MASALALARI

Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi bosh inspektori,
mustaqil tadqiqotchi

Email: o.shuxratovich@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarda dividend siyosati bilan bog'liq soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Xususan, dividendlardan to'lov manbayida soliq ushlab qolish, uning amaldagi normativ-huquqiy bazasi va amaliyotda qo'llanishi, shuningdek, buxgalterlar hamda soliq xodimlari uchun yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari yoritiladi. Hozirgi sharoitda dividendlar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'ri yuritilishi davlat byudjeti daromadlarining barqaror tushumlarini ta'minlash, korxonalarning sof foydasi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish hamda soliq siyosatining strategik maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maqolada soliq imtiyozlari va ularning dividend soliqlariga ta'siri, soliq stavkalari darajasi hamda ularning biznes subyektlarining moliyaviy faoliyatiga qo'shimcha yuk bo'lish ehtimoli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mulkchilik shakli, aksiyadorlik jamiyatlari, dividend, sof foyda, soliq, foyda solig'i, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, soliq munosabatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki.

Abstract: This article is devoted to the improvement of tax administration related to the dividend policy of joint-stock companies and other business entities. In particular, it examines the issues of withholding tax at source on distributed dividends, the existing legal and regulatory framework and its practical application, as well as the challenges faced by accountants and tax officials and possible solutions to these problems. In the current context, accurate accounting and reporting of dividends play a vital role in ensuring stable revenues to the state budget, effective control over the net profit of enterprises, and achieving the strategic objectives of fiscal policy. Furthermore, the article analyzes tax incentives and their impact on dividend taxation, the level of tax rates, and the potential risk of creating an additional financial burden for business entities.

Key words: form of ownership, joint-stock companies, dividend, net profit, tax, profit tax, tax incentives, tax rate, tax relations, tax policy, state budget, tax administration, tax burden.

Аннотация: Настоящая статья посвящена вопросам совершенствования налогового администрирования, связанного с дивидендной политикой акционерных обществ и других хозяйствующих субъектов. В частности, рассматриваются проблемы удержания налога у источника при распределении дивидендов, анализируется действующая нормативно-правовая база и практика её применения, а также освещаются трудности, возникающие у бухгалтеров и налоговых специалистов, и пути их решения. В современных условиях правильное ведение расчётов по дивидендам имеет важное значение для обеспечения стабильных поступлений в государственный бюджет, эффективного контроля над чистой прибылью предприятий и достижения стратегических целей налоговой политики. Кроме того, в статье анализируются налоговые льготы и их влияние на налогообложение дивидендов, уровень налоговых ставок, а также вероятность дополнительной нагрузки на финансовую деятельность субъектов бизнеса.

Ключевые слова: форма собственности, акционерные общества, дивиденд, чистая прибыль, налог, налог на прибыль, налоговые льготы, налоговая ставка, налоговые отношения, налоговая политика, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговая нагрузка.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning kuchayib borishi, ko'p jihatdan, ular bilan bog'liq soliq munosabatlari bevosita taalluqlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlarda faoliyatni tashkil etish va korporativ moliyani tartibga solish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida soliq munosabatlari hamda investitsion muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki davlatning ichki qonunchilik talablari to'g'ridan-to'g'ri soliq yukiga ta'sir ko'rsatadi, soliq yukining darajasi esa kapital harakatlarining yo'nalishi va korporatsiyalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini belgilab beradi.

Agar soliq tizimi izchil va to'g'ri tashkil etilsa, bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki korporatsiyalarning uzoq muddatli rivojlanishiga, investitsiya salohiyatini kengaytirishga ham imkon yaratadi. Yaxshi ishlab chiqilgan soliq strategiyasi orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarni samarali boshqarishi, dividend siyosatini optimallashtirishi, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishi, shuningdek, qonunchilik doirasida soliq yukini kamaytirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishi mumkin.

Shu bilan birga, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar uchun qo'shimcha majburiyatlar belgilangan. Jumladan, "Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, ular har yil yakunida sof foydadan dividendlarni taqsimlash va davlat ulushiga to'g'ri keladigan qismini davlat byudjetiga o'tkazishlari shart. Bu esa nafaqat davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlaydi, balki davlat ulushi mavjud bo'lgan korporatsiyalarda dividend siyosati va soliqqa tortish mexanizmlarining muvofiqlashtirilishini ham talab etadi.

Ushbu maqolada dividendlarni hisoblash, soliqlarni hisobga olish, ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, amaliy jihatdan samarali yondashuvlar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Korporativ moliya boshqaruvida soliq munosabatlarini samarali tashkil etishning ahamiyati juda katta. Har bir korporatsiya o'z moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishda soliq tizimining o'ziga xos jihatlarni hisobga olish lozim. Soliq optimizatsiyasi, korporatsiyaning moliyaviy rejalari va investitsiya siyosatiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri sifatida, ularning rentabelligini oshiradi, shu bilan birga, iqtisodiy risklarni kamaytiradi.

"Davlat soliq yuki kamaytirilganda, to'lashning mushkul soliqni joriy qilishga qaraganda ko'proq mablag' yig'adi. Qolgan mablag'lar esa kelajakda soliq solinadigan qo'shimcha daromad sifatida qolishi mumkin. Shu bilan birga, davlatning jazolar va majburiy to'lovlar bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlari kamayadi, va soliq to'lovchilar ushbu to'lovlarni osonlikcha amalga oshirishi mumkin".¹

18- va 19-asrlarda xorijiy olimlar davlat byudjetlari va milliy daromad o'rtasidagi nisbatni, shuningdek, korporativ subyektlar va fuqarolardan olinadigan soliqlarning hajmini tahlil qildilar. Soliq yuki ko'rsatkichi va uning iqtisodiyotga ta'siri birinchi marta 17-asrda qayd etilgan. Shu munosabat bilan, F.Yusti "makroiqtisodiyotda soliq yukini byudjet va davlatning milliy daromadi o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan o'rgangan. U mamlakat byudjeti milliy daromadning 1/6 qismini tashkil qilishi kerak,"² deb hisoblagan.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovlarining yuqoriligi kompaniyaning naqd pul oqimiga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida uning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etadi. Xususan, yuqori soliq stavkalari bilan ishlovchi kompaniyalar ko'pincha o'z naqd pul oqimini yaxshilash uchun moliyaviy rejalashtirishda aniqroq yondashuvlarni qo'llaydilar (Graham, 2003).

Soliq yuki va uni tahlil qilish masalasi o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham keng o'rin olib kelmoqda. Shu jumladan U. To'lakov "Soliq yuki darajasini o'rganish uni O'zbekiston soliq tizimining muhim elementi sifatida aniqlashga imkon beradi, bu uning samarali siyosatini amalga oshirish sharti bilan davlat byudjetiga barqaror va yetarli tushumlarni ta'minlaydi. Soliq yuki darajasini optimallashtirish soliq tizimi samaradorligini oshirish bilan bog'liq qator vazifalarni hal etishning samarali usulidir"³ deb hisoblaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada dividend soliqlarini hisoblash va unda yuzaga keladigan amaliy muammolarni tahlil qilish metodologiyasi qo'llanildi. Xususan, soliqqa tortish jarayonlarida buxgalterlar tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik xatoliklar, ularning sabablari hamda korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri chuqur o'rganildi. Tadqiqot

1 A. Smit. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. 1776 y

2 Fridrix Yusti. Grundsätze der Finanzwissenschaft. 1853 y

3 To'lakov. U. (2024) Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. N-10, 278-286



davomida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va boshqa tegishli rasmiy manbalar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlardan keng foydalanildi. Shuningdek, amaliyotda qo'llanilayotgan hisob-kitob usullari, mavjud qonunchilik bazasi va normativ hujjatlar solishtirma yondashuv asosida tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy-statistik tahlil, huquqiy-me'yoriy sharh hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanib, tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyati ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dividend (inglizcha dividend, lotincha dividendum — taqsimlanadigan narsa) — bu aksiyadorlik jamiyatining (kompaniyaning) sof foydasidan, soliqlar va boshqa ajratmalar to'langandan so'ng, aksiyadorlarga ularning aksiyalari miqdoriga qarab taqsimlanadigan ulushidir.

Soliq kodeksining 41-moddasiga asosan, soliq munosabatlari uchun quyidagilar dividendlar deb e'tirof etiladi:

1) yuridik shaxsning foydasini (shu jumladan imtiyozli aksiyalar bo'yicha foizlar tarzidagi foydasini) ushbu yuridik shaxsning aksiyadoriga (ishtirokchisiga) tegishli aksiyalar (ulushlar) bo'yicha taqsimlash chog'ida aksiyador (ishtirokchi) tomonidan olingan har qanday daromad;

2) tugatish chog'ida yuridik shaxsning aksiyadoriga (ishtirokchisiga) ushbu aksiyadorning (ishtirokchining) shu yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi miqdoridan ko'p bo'lgan qismi bo'yicha pul yoki natura shaklidagi to'lovlar;

3) jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchiga ulushi qismining chiqarilish yoki chiqib ketish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadigan haqiqiy qiymatini ushbu aksiyadorning (ishtirokchining) shu yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi miqdoridan ko'p bo'lmagan qismi bo'yicha to'lash;

4) ushbu yuridik shaxsning o'z kapitali (mol-mulki) hisobiga ustav fondi (ustav kapitali) oshgan taqdirda yuridik shaxs aksiyadorining (ishtirokchisining) qo'shimcha aksiyalar qiymati (ulush nominal qiymatining oshishi) tarzida olingan daromadlari;

5) O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olinadigan, chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq dividendlar jumlasiga kiritiladigan har qanday daromadlar;

6) xususiy korxona mulkdoriga, oilaviy korxona ishtirokchisiga yoki fermer xo'jaligi boshlig'iga bunday yuridik shaxslar tasarrufida qolgan foyda summasidan to'lanadigan daromadlari.

1-jadval. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shaklidan kelib chiqqan holda, dividendlarni hisobga olish tartibi va huquqiy asoslari

Mulkchilik shakli	Aksiyadorlik jamiyatlari	Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	Xususiy korxonalar	Oilaviy korxonalar
Dividend solig'i stavkasi	5%	5%	5%	5%
Dividend hisoblash manbasi	sof foyda va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi	sof foyda va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi	Xususiy korxonaning sof foydasi	Oilaviy korxonaning sof foydasi
Dividendlarni taqsimlash to'g'risidagi qaror	Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.	Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.	Xususiy korxona mulkdori tomonidan qabul qilinadi	Oilaviy korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.
Hisoblab yozish davriyligi	moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.	Jamiyat yilning har choragida, yarim yilda bir marta yoki bir yilda bir marta qaror qabul qilishga haqlidir.	korxona mulkdoriga chorakda bir martadan ko'p bo'lmagan tarzda sof foydadan to'lash amalga oshiriladi.	korxona mulkdorlariga chorakda bir martadan ko'p bo'lmagan tarzda sof foydadan to'lash amalga oshiriladi.



To'lov muddatlari	qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.	Ta'sis hujjatlariga muvofiq	-	-
Ta'sischi to'lanadigan summa	95%	95%	95%	95%
Soliq imtiyozlari	17.01.2022 yildagi PQ-90-son Qarori bilan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar	-	-	-

Yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga to'lanadigan dividendlarga Soliq kodeksining 345-moddasida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbaida soliq solinadi va bunday daromadlarni oluvchi tomonidan soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.

Dividendlarni to'lab beruvchi yuridek shaxslar soliq agenti sifatida qaraladi. Soliq agenti O'zbekiston Respublikasi soliq rezidentlari deb e'tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga nisbatan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida soliq summasini (soliq kodeksi 337-moddasining birinchi qismi 11-bandida yoki 381-moddasida nazarda tutilgan) 5 foizlik soliq stavkalari bo'yicha ko'rsatilgan daromadlarni ushbu moddada belgilangan tartibda har bir to'lovga tatbiqan belgilaydi.

Misol uchun: "Binokor" AJning 2024-yil yakunlari bo'yicha sof foydasi 50 mlrd.so'mni tashkil etadi. Aksiyalarning 70 foizi yuridek shaxsga, 30 foizi esa jismoniy shaxsga tegishli. 2025-yilning iyun oyida 2024-yil sof foydasining 50 foizini (25 mlrd.so'm) dividend ko'rinishida taqsimlash bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilish qarori qabul qilindi. 2025-yilning 18-avgust oyida dividend aksiyadorlarga to'lab berildi. Soliq hamda buxgalteriya hisobini yuritish tartibi quyidagicha:

1-holat. dividend hisoblanishi.

Yuridik shaxs uchun 17,5 mlrd.so'm ($25 \text{ mlrd.so'm} \cdot 70\%$), jismoniy shaxs uchun 7,5 mlrd so'm ($25 \text{ mlrd.so'm} \cdot 30\%$)

D-t: Taqsimlanmagan foyda 25 mlrd.so'm

K-t: Ta'sischi oldidagi qarz majburiyati 25 mlrd.so'm

2-holat. Dividendlar uchun to'lov manbaida (foyda) solig'ining hisoblanishi hamda soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi.

Yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan dividendlarga SKning 345-moddasiga asosan to'lov manbaida 5 foizli stavkada soliq solinadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvarda qabul qilingan "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlari daromad solig'idan ozod qilinadi.

Shunga ko'ra, soliq agenti tomonidan to'lov manbaida ushlab qolib byudjetga to'lab beriladigan dividend (foyda) solig'i 875 mln.so'm ($17,5 \text{ mlrd.so'm} \cdot 5\% + 7,5 \text{ mlrd so'm} \cdot 0\%$)ni tashkil etadi.

D-t: Ta'sischi oldidagi qarz majburiyati 875 mln.so'm

K-t:Foyda solig'i 875 mln.so'm

Soliq kodeksining 345-moddasiga asosan dividendlardan olinadigan soliq summasi bo'yicha soliq hisoboti o'zining soliq hisobiga olingan joyidagi soliq organiga dividendlar hisoblangan oydan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay soliq agentlari tomonidan taqdim etiladi. Soliq summasi dividendlarni va foizlarni to'lash muddatidan kechiktirmay byudjetga to'lanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2025-yilning iyun oyi uchun soliq agentlari tomonidan to'lov manbaida ushlab qolinadigan dividendlar va foizlar ko'rinishida to'lanadigan daromadlardan olinadigan soliq (35-kod) bo'yicha 2025-yilning 20-iyuligacha hisobot taqdim etish lozim.

Bundan tashqari, SKning 41-moddasida keltirilgan dividend deb e'tirof etiladigan 6 ta holatlarning hech bo'lmaganda 1 tasi amalga oshirilsa, to'lov manbaida soliq bazasi yuzaga keladi va SKning 345-moddasida ko'rsatilgan tartibda dividend ko'rinishida soliqqa tortiladi.



3-holatda dividend hamda soliq to'lovlar

2025-yilning 18-avgustida soliq agentining ta'sischi'larga to'lab beriladigan dividend miqdori 24,125 mlrd. so'mni (shundan yuridik shaxs uchun 16,625 mlrd.so'm, jismoniy shaxs uchun 7,5 mlrd so'm (25 mlrd.so'm*30 %), foyda solig'i esa 875 mln.so'mni tashkil etadi.

D-t: Ta'sischi'larning oldidagi qarz majburiyati 24,125 mlrd.so'm

D-t: Foyda solig'i 875 mln.so'm

K-t: Bankdagi pul hisobvarag'i 25 mlrd.so'm

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri sifatida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirishni amalga oshirishdir.

Afsuski, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat ulushi mavjud korxonalar soni (Aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, davlat korxonalari hamda davlat unitar korxonalari) 2 212 tani, shundan davlat ulushi:⁴

100 foiz bo'lganlari– 1 120 ta;

50-100 foiz oralig'idagilar – 742 ta;

50 foizdan pastlari – 350 tani tashkil etadi.

Ushbu korxonalarni xususiylashtirish orqali, soliqdan qochish, qasddan foydani kamaytirib ko'rsatish, xarajatlarni oshirish holatlari hamda davlat byudjetiga dividendlar undirilishi oqibatida korxonaning aylanma mablag'lari tanqisligining oldi olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-mayda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvarda qabul qilingan "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son Qarori;
4. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi saytlari.

4 <https://davaktiv.uz/uz/corporate/?page=20>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
